

SOXTA XON ISYONI VA QO‘QON XONLIGINING QULASHI.

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o‘g‘li

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998 95 770 77 96

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1872–1876-yillarda dastlab Qo‘qon xonligiga, so‘ngra Rossiya istilosiga qarshi qo‘zg‘alon ko‘targan soxta xon Po‘latxonning qo‘zg‘alonga qo‘shilishi, undagi faoliyati, qo‘zg‘alonchilarning umumiy harakati va oqibatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xudoyorxon, Nasiriddinbek, Abdurahmon Oftobachi, Iso Avliyo, Musulmonqul, Andijon, Mulla Is‘hoq, Skobelev.

Xudoyorxonning soliq zulmiga qarshi ko‘tarilgan qirg‘izlar harakati keyinchalik jiddiy tus oldi. Unga qipchoqlar ham qo‘shildi. Maqsad Xudoyorxonni taxtdan tushirib, uning o‘rniga soxta xon bo‘lgan Po‘latxon (Mulla Is‘hoq)ni taxtga chiqarish edi. Qo‘zg‘alon dastlabki paytlarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, Qo‘qonning nufuzli kishilari unga qo‘shilganidan so‘ng, Xudoyorxon xavf ostida qolib, qochib ketdi. Shunga qaramay, Po‘latxon taxtga o‘tira olmadi.

Po‘latxon qo‘zg‘aloni. Qo‘zg‘alon ikki bosqichga bo‘linadi: birinchi bosqich asosan Qo‘qon xoni Xudoyorxonga qarshi qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqich ruslarga qarshi yo‘naltirilgan. Qo‘zg‘alon qirg‘izlarga Xudoyorxon tomonidan og‘ir soliqlar solinib, ularni yig‘ish uchun yuborilgan vakillarga qarshilik sifatida boshlandi. Qirg‘iz-qipchoq avlodidan bo‘lgan Musulmonqul ko‘pchilik qirg‘izlar maslahatiga ko‘ra Buxoroga xonzoda topish uchun bordi.

U xon avlodidan bo'lgan Po'lat (Murodxonning o'g'li) bilan uchrashdi, lekin Qo'qon xonligi taxtiga chiqish haqidagi taklifni u rad etdi. Keyin u Urganchga — Muzaffarxon (Muhammad Alixonning o'g'li) oldiga bordi. Musulmonqul xalq nomidan unga ham shu taklifni bildirdi, ammo Muzaffarxon ham buni qat'iyan rad etdi. Shundan so'ng Musulmonqul orqaga, Toshkentga qaytishga majbur bo'ldi. U Toshkentda Mulla Abdulmo'min Muhsinboy o'g'lining uyida to'xtadi. Bu yerda nosvoychi Mulla Is'hoq ham bor edi. Musulmonqul Mulla Abdulmo'minga o'zining muvaffaqiyatsizliklari haqida hikoya qilib berganda, u Mulla Is'hoqni ko'ndirish va o'zi bilan birga olib ketib, uni Po'latxon deb tanishtirishni maslahat beradi. Mulla Is'hoq o'z roziligini bildiradi. Shu paytdan boshlab ular qirg'iz otryadi bilan birlashish uchun Chustga keladilar. Qirg'izlar bundan juda xursand bo'ladilar. Qalbakilikdan shubha qilmay, Mulla Is'hoqni oq namatda ko'tarib, xon deb tantanali ravishda e'lon qiladilar. Shunday qilib, u soxta Po'latxon bo'ladi.

Xudoyorxon taxtga yangi davogar borligini bilib, unga qarshi qo'shin yubordi. Urush natijasida yengilgan qirg'izlar soxta xon bilan qochishga majbur bo'ldilar. Oradan ko'p o'tmay, Kosonga kelib, qipchoqlar bilan birga harakat qilishga kelishib oldilar. Xudoyorxon qo'zg'alonchilar oldiga katta obro'ga ega bo'lgan Abdurahmon Oftobachini yubordi. Bu yaxshi natija berib, qo'zg'alonchilarni tinchlantirdi. Yarashish belgisi sifatida qirqta oqsoqolni Qo'qonga yubordi. Oftobachi maktubida oqsoqollarga yaxshi munosabatda bo'lish kerakligini yozganiga qaramay, xon ularning barchasini qirib tashladi. Natijada, xonning bunday xoinona harakati tufayli Oftobachi Qo'qonga qaytmay, qirg'izlar orasida qoldi. Faqat xonning chaqirig'idan keyin qaytdi.

Qirg'izlar o'z ulug'lari o'ldirilganini eshitib, qo'zg'alonni yangi kuch bilan avj oldirdilar. Qipchoq va qirg'izlar birlashib, ikki tomondan Qo'qon xonligi chegaralariga bostirib bordilar. O'zgan, Uchqo'rg'on, O'sh, So'zoq va

Buloqboshini qo'zg'alonchilar egalladilar. Uchqo'rg'on begi qochib ketdi. Buloqboshi shahri vayronaga aylantirildi. Qo'qon xonligining 5000 askari qo'zg'alonchilar tarafga o'tib ketdi. Xon Abdurahmon Oftobachi va Namangan begi Iso Avliyoni yubordi. Qo'zg'alonchilar rus hukumati Xudoyorxonga yordam berishi mumkinligini bilib, uning vakillari bilan Xo'jandda uchrashdilar. Ulardan rad javobini olgach, vaqtincha faoliyatlarini to'xtatib turdilar. Shunday qilib, 1873-yilda qo'zg'alon vaqtincha to'xtadi [4, B. 67].

1875-yili atrofiga 200 dan ziyod kishini to'plagan Po'latxon O'zganga kelib, xonga qarshi katta xavf tug'dirdi. Ularga qarshi xon Iso Avliyo, Abdurahmon Oftobachi va Sarimsoq Eshikog'asi boshchiligida 4 ming kishilik qo'shin yubordi. Biroq 1875-yil 28-iyulda yirik amaldorlar o'z qo'shinlari bilan, shuningdek Xudoyorxonning o'g'li, Andijon hokimi Nasiriddinbek 5 ming kishilik qo'shini bilan qo'zg'alonchilar tomoniga o'tib, ular bilan birlashdi. Xonlikning asosiy harbiy qismlari va lashkarboshilarning qo'zg'alonchilar tomoniga o'tib ketishi Xudoyorxon taqdirini hal etgan omil bo'ldi [2, B. 343].

Xudoyorxon 1875-yil 2-iyul kuni o'z oilasi bilan Toshkentga, rus elchixonasi panohiga qochib bordi. U o'zi bilan birga 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari hamda 40 arava xazina olib, Turkiston general-gubernatori fon Kaufman huzuriga bordi. Kaufman 40 arava boylikni olib, Xudoyorxonni Orenburgga surgun qildi. U bu yerda tutqinlikda yashab, keyinchalik qochgan [3, B. 177].

Nasiriddinbek ruslarga qarshi kurash boshladi. O'z navbatida, Buxorodan yordam so'rab yozgan maktubi Kaufman qo'liga tushdi. 1875-yil 25-avgustda Kaufman qo'shin bilan Xo'jand orqali Qo'qon yo'li bo'ylab yurish boshladi. Bu vaqtda Mahram istehkomida 30 ming kishi va bir necha

ming otliq qo'shin bilan himoyachilar jangga shay edi. Kaufman askarlari hujumga o'tdi va himoyachilar mag'lubiyatga uchradi. Abdurahmon Oftobachi qochib qutildi. Mahram qal'asidagi mag'lubiyat Qo'qon xoni Nasiriddinxon va uning atrofida qilarni sarosimaga solib qo'ydi. Nasiriddinning Kaufmanga yolvorib yozgan maktubi inobatga olinmadi. Chunki chor hukumati Qo'qon xonligini butunlay tugatishni maqsad qilgan edi.

1875-yil 29-avgustda Kaufman Qo'qonga kelganda, Nasiriddin uni katta izzat-ikrom bilan kutib oldi. U taxtni saqlab qolish yo'lida Kaufmanga ko'plab xushomadgo'ylik qildi. Hatto: "Menga xalqni boshqarish qiyin, shu bois mening va xalqning taqdirini siz — yarim podshoh (Kaufman) ixtiyoriga topshiraman", deyishgacha bordi. Nasiriddinxon vatanga nisbatan xoinlik yo'lini tutib, o'zini va xonlikni tamomila Rossiya changaliga tashladi. Bu paytda Andijon shahri rus bosqinchilariga qarshi kurash markaziga aylangan edi. Bu yerda 60–70 ming kishidan iborat vatan himoyachilari yig'ilib, shaharning katta ko'chalariga to'siqlar (barikadalar) qurilgan edi. Ularga Abdurahmon Oftobachi qo'mondonlik qilgan. Po'latxon 15 ming qirg'iz bilan dushmanga orqa tomondan zarba berish uchun shahar chekkasiga o'rnashgan edi. Ularning orasida o'zbeklar ham bor edi. Nasiriddinxon qochgandan so'ng Po'latxon xon deb e'lon qilindi.

Skobelev va Miller-Zakomelskiy boshchiligidagi qo'shin Andijon shahriga hujum qildi. Ularga qarshi jang qilgan Po'latxon qo'l ostidagi vatan himoyachilari to'plardan yog'dirilgan o'qlarga bardosh bera olmay chekindilar. Ruslar shaharga bostirib kirib, qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ko'plab kishilarni o'ldirdilar. Shaxsan Skobelevning o'zi askarlari bilan 20 ming kishini o'ldirgani qayd etiladi. Xonlik shaharlari qo'ldan qo'lga o'tib turdi. Chunki bosqinchilar g'alaba qilgan joylarda harbiy qism qoldirish

imkoniga ega bo'lmay, ko'chib yurishga majbur bo'lganlar. Bundan Po'latxon foydalanib, O'sh, Andijon va Marg'ilonni vaqtincha egallagan.

Nasiriddinxon Po'latxonga qarshi Sulton Murodbek boshchiligida qo'shin yubordi. Ammo u Po'latxon bilan to'qnashishdan cho'chib, Fayziobod qishlog'iga o'rnatildi va qirg'iz qo'zg'alonchilarining ayrim guruhlarini yengdi. Asir olingan 30 nafar qirg'iz Qo'qonga yuborilib, Nasiriddinxon tomonidan dorga osildi. Bu vaqtda esa Po'latxon tomonidan Marg'ilon begi lavozimiga tayinlangan Vali Xon 20 ming kishi bilan Fayziobodga kelib, Sulton Murodbek ustidan g'alaba qozondi. Bu voqealar yuz berayotgan paytda Qo'qonning o'zida ham Nasiriddinxonga qarshi kuchlar bosh ko'targan edi. Natijada uning hayoti xavf ostida qolib, uch soatlik jangdan so'ng Xo'jandga qochib ketdi.

Hasankalla boshchiligida Yangiqo'rg'on va Bachqir qishloqlari aholisi Qo'qonga bostirib kirib, Sulton Murodbekni tutib, Po'latxonga yubordilar. Qoradaryo atrofida Skobelev boshchiligidagi qo'shin bilan jang bo'lib, unda dushman ustun keldi.

1875-yil 18-oktabrda Ashobada rus askarlari aholini qirib, qishloqni vayron qildilar. 1875-yil 23-oktabrda Skobelev To'raqo'rg'onni egalladi. Namanganda qarshilik kuchaydi, ruslarga qarshi kurashda himoyachilardan 8800 kishi halok bo'ldi. Po'latxon xonlikning sharqiy qismida hukmdorlik qilib, bosqinchilar bilan bo'ladigan urushga tayyorgarlik ko'rdi. Bu vaqtda Andijonda Abdurahmon Oftobachi boshchiligida 20 ming qurollangan xalq ko'ngillilari, 5000 sarboz va 10 ming otliq to'plangan edi.

Skobelev 1876-yil 8-yanvarda Andijonga hujum qilib, qattiq qarshilikka uchradi. Abdurahmon Oftobachi himoyachilarning katta qismi bilan Asakaga chekindi. Asakaga 13-yanvarda general Skobelev hujum qilib, himoyachilarni yengdi. 800 nafar himoyachi halok bo'ldi. Abdurahmon Oftobachi o'zining

12 sarbozi va 700 yigiti bilan Skobelevga taslim bo'ldi. Skobelev ko'plab himoyachilarni o'ldirdi, andijonliklar zimmasiga tovon yukladi va 33 ming so'mni darhol undirib oldi. Abdurahmon Oftobachining mag'lubiyati Nasiriddinxon tarafdorlarini kuchaytirib, uni 1876-yil 21-yanvarda qayta taxtga o'tqazdilar. 1876-yilda rus qo'shinlari Uchqo'rg'onda Po'latxonni mag'lub etdilar. Uning qurol-aslahalari, mol-mulki va xazinasi o'lja sifatida olindi. Po'latxon qochishga ulgurgan bo'lsa-da, keyinchalik tutib olinib, dorga osildi.

1876-yil 7-fevralda general Skobelev qo'shinlari bilan Qo'qonga kelib, Nasiriddinxon va uning tarafdorlarini Toshkentga yubordi. So'ngra u Vladimir guberniyasiga surgun qilindi. Abdurahmon Oftobachi ham Rossiyaga surgun qilindi. Shu tariqa Qo'qon xonligi tugatildi [1, B. 41–43].

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonlari zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alon o'z atrofiga Qo'qonning nufuzli kishilarini jamlagandan so'ng mohiyatan o'zgarib, rus bosqinchilariga qarshi kurashga aylandi. Qo'zg'alonchilarning harbiy qismlari son jihatdan ko'p bo'lsa-da, ularning harbiy tayyorgarligi ancha past edi. Yagona markazlashgan kuchga birlashmaganlik natijasida ruslar bu qarshilikni nisbatan oson yenga oldilar. Ruslar butun Farg'ona vodiysini bosib olib, 1709-yildan buyon mavjud bo'lgan Qo'qon xonligini tugatdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. H. Ziyoyev. **O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).** – Toshkent: "Sharq", 2006. – 352 b.
2. R. H. Murtazayeva. **O'zbekiston tarixi.** – Toshkent: ZiyUch.com kutubxonasi, 2005. – 536 b.

ilmiy –amaliy anjuman

3. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev. **Vatan tarixi. 2-qism.**
– Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 368 b.
4. X. X. Бобобеков. **Кўкон тарихи.** – Тошкент: “Фан”, 1996. – 240 б.